

Hozirgi kunda  
O'zbekistonda:

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori:  
**920 000 so'm**

Bazaviy hisoblash miqdori:  
**300 000 so'm**

Pensiya hisoblashning bazaviy miqdori:  
**324 000 so'm**

# YOSHLAR OVOZI

*of*  
**BIZ - KELAJAK  
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 58 (16511)  
2022-yil, 24-avgust  
chorshanba

 /yoshlarovozi

 /yoshlarovozi

 /yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925-yildan chiqa boshlagan

Imtiyoz  
2-bet

Tadbirkorlar uchun  
imkoniyatlar

Besh tashabbus olimpiadasi  
5-bet

Arizalar  
1 milliondan oshdi

Uchqun  
7-bet

Oltin davr  
og'riqlari

## TALABALAR TURAR JOYI




149

MING TALABA  
YOTOQXONAGA MUHTOJ

“KELAJAK”

batafsil  
3-betda

## INKLYUZIV TA'LIM MARKAZI:



# JIZZAX TAJRIBASI

**B**ugungi kunda Jizzax viloyatida nogironligi bo'lgan yoshlar (30 yoshgacha) 10 ming 443 nafarni tashkil qiladi. Ularga bepul va sifatlari ta'limg olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Yil boshidagi xatlov va o'rganishlar natijasida 305 nafar nogiron yigit-qiz "Yoshlar daftari"ga kiritilib, 251 nafariga amaliy yordam ko'satsildi. Bugungi kunga qadar bu yoshlarga asbob-uskuna va mehnat qurollari, davolanish xarajatlari, moddiy yordam va kontrakt pullari uchun 654,4 million so'm to'lab berildi.


Imkoniyati cheklangan yoshlarni nafaqat ijtimoiy himoya qilish, balki ularning shaxsiy rivojlanishi va ta'limg olishi borasida ham chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari va qobiliyatiga ko'ra maxsus yoki umumiyligi ta'limg tizimida o'qishi uchun inkyuziv ta'limg markazi tizimi amalga oshirilmoqda.

Inkyuziv ta'limg vazifasi bolalarning qobiliyati va holatidan qat'i nazar, ularning bar-chasiga sifatli ta'limg berishdan iborat. Inkyuzivilik bunday bolalar ijobji ruhiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun oilada yashashi va o'z tengdoshlari bilan oddiy muktabda bilini olishi lozimligini nazarda tutadi. Inkyuziv ta'limg tizimi nogironlar aravachasida-gi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday muktabda ta'limg olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay o'qyan bolaga esa muktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'satsilishini kafolatlaydi.

Bu boroda Yoshlar ishlari agentining Jizzax viloyati boshqarmasi qoshida tashkil etilgan "Inkyuziv

ta'limg markazi"ga may, iyun, iyul, avgust oylarida jami 74 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar qamrab olindи. Ko'satsilgan yordamdan so'ng ularning 29 nafari sog'aydi. Hozir markazda 45 nafar bola tahsil olmoqda. Shundan "Logopediya" to'garagida 28 nafar, "Qo'l mehnati" to'garagida 17 nafar bola ishtirot etadi.

"Logopediya" to'garagi (zaif ko'ruchchi, zaif eshituvchi, nutqi-



da kamchiligi mavjud, rotatizm) o'quvchilariga yakka tartibda va frontal yondashgan holda turli mashg'ulotlar o'tilyapti.

Masalan, nutq nuqsoniga ega bo'lgan o'quvchilar bilan logopedik mashg'ulot, zaif ko'ruchchi o'quvchilar bilan sezuvchanlikni oshirish mashqlari, zaif eshituvchi o'quvchilar bilan imo-ishora mashqlari, frontal tarzda esa diqqat-e'tiborni jamlash, xotira, va fikrni to'liq ifodalash didaktik o'yinlari o'tkazilyapti. "Qo'l mehnati" to'garagida ham shu



**Azizbek  
YO'LDOSHEV,**

Yoshlar ishlari agentligining Jizzax viloyati boshqarmasi ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishlash bo'limi mutaxassisi

tartibda mashg'ulotlar olib borilmoqda.

Nogiron yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yil 8-16-avgust kunlari Jizzax viloyati hokimligi hamda qator mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda 100 nafar ijtimoiy himoya-ga muhtoj yosh Forish tumani "Koinot" oromgohiga dam olish uchun yuborildi. Oromgohda ikkita fitobar, axborot-resurs markazi, ma'nnaviyat va ma'rifat xonasasi, mashg'ulot zallari tashkil etilib, inglis tili, tasviriy san'at, mohir qo'llar, kompyuter savodxonligi kabi o'n beshga yaqin to'garakda malakal murabbiylar mashg'ulot olib bordi. Tibbiyot bo'limida fizioterapiya muolajalari, fitodavolash xizmatlari, jismoniy tarbiya mashqlari tashkil etildi.

Imtiyoz

## TADBIRKORLAR UCHUN IMKONIYATLAR

Davlatimiz rahbari 22-avgust kuni tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkazib, soha vakillarini qo'llab-quvvatlash yuzasidan 5 ta yo'nalishda tashabbuslarni ilgari surdi.

**BIRINCHI YO'NALISH** – korxonalarni toifalarga ajratib, qo'llab-quvvatlash bo'yicha alohida yondashuv belgilanadi. Bunda korxonalar yillik aylanmasi bo'yicha toifalarga ajratiladi:

- 1 milliard so'mgacha bo'lgani – **mikro biznes;**

- 10 milliard so'mgacha bo'lgani – **kichik biznes;**

- 100 milliard so'mgacha bo'lgani **o'rta biznes** toifasiga kiradi.

**2023-yil 1-yanvardan** mikro biznes uchun aylannadan olinadigan soliqning amaldagi 4 foizdan 25 foizgacha bo'lgan stavkalar o'rninga **yagona 4 foizi soliq stavkasi joriy etiladi**. Bunda olis hududlardagi va alohida toifadagi tadbirkorlar uchun amaldagi 1 va 2 foizli stavkalar saqlab qolindи. Yoki ular ixtiyoriy ravishda yiliga 20-30 million so'm to'lasa, buxgalteriya hisobini yuritish va soliq idoralariga taqdim etish majburiyatdan ozod etiladi.

Aylanmasi 1 milliard so'mdan oshib, umumiyligi soliq to'lash tartibiga o'rgan korxonalar bir yil davomida foyda solig'ini 2 barobar kam to'laydi.



### 2023-yil 1-yanvardan:

- kichikdan o'rta biznesga o'tgan korxonalar ikki yil davomida foyda solig'ining faqat 50 foizini to'laydi;

- mulkni sug'urta qilish xarajatlarining 50 foizi davlat hisobidan qoplab beriladi;

- soddalashtirilgan soliq, moliyaviy va statistika hisobotlari joriy etiladi;

- davlat xaridlarida 20 foiz kvota o'rnatilib, ushbu xaridlar doirasida ularga oldindan 50 foiz mablag' to'lab beriladi (amalda 15 foiz).

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi **15 foizdan 12 foizga tushiriladi**.

**IKKINCHI YO'NALISH** – tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay moliyalashtirish tizimini yaratishdir. Bu boroda kichik biznes loyihalariga 20 trillion so'm yo'naltiriladi.

**UCHINCHI YO'NALISH** – biznes yuriketishi uchun yetarli shart-sharoit, infratuzilma va kafolatli bozor kerak. Shu sababli, eng avvalo, tuman va shaharlarning sharoitidan kelib chiqib biznes uchun **alohibo yondashuvlar joriy etiladi**.

**TO'RТИNCHI YO'NALISH** – tadbirkorlarning mulk huquqini himoya qilish masalasi. Bundan buyon yer va mulk ajratish haqidagi qarorlar **faqat sud tartibida bekor qilinadi**.

**BESHINCHI YO'NALISH** – tadbirkorlarga nisbatan yangi javobgarlik va jazo choralarini joriy etishga **3 yillik moratoriya e'lon qilinadi**. Shuningdek, tadbirkorlarga nisbatan majburiyatlar yuklaydigan yangi qonun hujjatlari qabul qilinganda, yo'l qo'yan xatosi uchun tadbirkorlarga **6 oy davomida jazo qo'llanilmaydi**.

# KO'CHADA QOLAYOTGAN "KELAJAK"

/Birinchi maqola/

Test natijalari chiqishiga oz vaqt qoldi. Hademay o'n minglab yoshlar talabalik baxtiga mayassar bo'ladi. Afsuski, o'qish uchun boshqa shaharlarga otlangan yoshlarni katta sinov va g'ovlar kutib turibdi. Ularning eng katasini boshpvana masalasidir.

Shaharda hech kim talabalarni quchoq ochib kutib turgani yo'q. Yotoqxonalar joy yetishmasligi, ijarama-ijsara sargardonlik qismati ularni bir zum tinch qo'ymaydi.

Xo'sh, poytaxt talabalarni kutib olishga tayormi?

# 149

## MING TALABA YOTOQXONAGA MUHTOJ

2020/2021-o'quv yili boshida respublikamizdagi oliy ta'lilmuassasalar 127 tani tashkil etgan. Ularning 88 tasida talabalarni yotoqxonalar mavjud bo'lib, 58 ming talabani sig'dira oladi. Vaholanki, har yili 149 ming nafardan ziyyod talabanning yotoqxonaga ehtiyoji bor. So'nggi yillarda oliy ta'lilmuassasalarida qabul kvotasi 2,6 barobarga, talabalar soni esa 2,3 barobarga ko'paydi. Lekin yotoqxonalar o'rinni atigi 25 foizga oshgan.

Mahalliy OTMlarning asosiy qismi, shuningdek, xorijiy universitetlarning ko'plab filiallari Toshkent shahrida joylashgan. Samarqand, Andijon, Buxoro, Qarshi shaharlari talabalar soni bo'yicha keyingi o'rnlarni egallaydi. Biroq, talabalarini turar joy bilan ta'minlash ko'satsatkichlari juda past. 2021-yil holatiga ko'ra, mamlakatning nufuzli 6 o'quv yurtidagi jami talabalar soniga nisbatan TTJ bilan ta'minlanganlar soniga e'tibor qarataylik: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabalar 29 769 nafarni tashkil qilgan. Ularning bor-yo'g'i 12,2 foizi talabalar turar joyi bilan ta'minlangan, xolos.

4703 nafar talaba tahsil olayotgan Toshkent davlat yuridik universiteti talabalar turar joyida 503 nafar (10,6 foiz) talaba yashashi uchun sharoit yaratilgan. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 2700 nafarga yaqin talaba tahsil olsa, ularning 8 foizi – 220 nafari yotoqxona bilan ta'minlangan. Qarshi davlat universitetida jami talabalar soni 16 578 nafar, 1084 nafari talaba turar joyiga ega.

Samarqand davlat universitetida o'qiyotgan 16 294 nafar talabandan 8 foizi, ya'n 1470 nafari turar joy bilan ta'minlangan. 7200 nafar talaba ijara uyda turadi.

Bu ko'satsatkich xorijiy OTM filiallarida ham yuqori emas. Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida 3803 talabandan 180 nafari, Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetida 1000 talabandan 460 nafari, Toshkent shahridagi Inha universitetida 1500 talabandan 200 nafari, Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutiida 740 talabandan 180 nafari, Ajou universitetida 450 talabandan 196 nafari yotoqxona bilan ta'minlangan.

Yotoqxonalarini ko'proq birinchi bosqich talabalariga ajratish, nafaqat magistrantlar, balki 3 va 4-bosqich talabalariga ham joy bermaslik holatlari uchraydi. OTMlarning kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, "Temir daftar"da ro'yxatda turuvchilarni turar joy bilan ta'minlashga e'tibor qaratmoqda. Bundan ortigiga qodir emas.



**Shahruba SATTOROVA,**  
"Yoshlar ovozi" muxbirini

## PREZIDENT TOPSHIRIG'I QACHON BAJARILADI?

Prezidentimiz 2021-yil iyun oyida oliy ta'limgizidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan selektorda talabalarining yotoqxona muammosiga to'xtalgandi. Davlatimiz rahbari talabalar uchun qo'shimcha 149 mingta turar joyga ehtiyoj borligi va bu masalanai tadbirkorlar bilan xususiy sherikchilik orqali tezda hal qilish mumkinligini aytgandi.

Shundan so'ng, 2021-yil sentabrda qabul qilingan hukumat qarori bilan respublika bo'yicha davlat-xususiy sherikchilik asosida har biri o'rtacha 400 o'rinni, jami 228 ta talabalar turar joylari barpo etilishi belgilandi. 2022-yilda hududlarda 47 ta, 2023-yilda 67 ta, 2024-yilda 62 ta, 2025-yilda 52 ta yotoqxona qurilishi kerak edi. Biroq.

Qaror ijrosi bilan qiziqib, **Olyi va o'rta maxsus ta'lim vazirligi matbuot xizmatiga mu-rojaat qildik.** Vazirlikning ma'lum qilishicha, talabalar turar joylarini DXSh asosida barpo etish bo'yicha 2022-yilda 43 ta OTMda 18 800 o'rinni 47 ta talabalar turar joyini barpo etish belgilangan. 2022-yil 1-avgust holatiga ko'ra, umumiy quvвати 20 800 o'rinni 39 ta loyiha ustida ishlар olib borildi. Shundan, **350 o'rinni 1 ta loyiha foydalishiga topshirilgan**, 4800 o'rinni 11 ta loyiha davlat reyestriga olinigan, 3000 o'rinni 7 ta loyiha bitimi rasmiylashtirish bosqichida, 1 ta 1 000 o'rinni loyiha tender bosqichida, 3300 o'rinni 5 ta loyiha 45 kunlik e'longa joylashtirilgan. Shu kunlarda 14 ta 8 350 o'rinni loyiha yuzasidan konsepsiya hujjatlari ishlаб chiqilmoqda.

“  
YOTOQXONALARNI KO'PROQ  
BIRINCHI BOSQICH TA-  
LABALARIGA AJRATISH, NAFAQAT  
MAGISTRANTLAR, BALKI 3 VA  
4-BOSQICH TALABALARIGA  
HAM JOY BERMASLIK  
HOLATLARI  
UCHRAYDI.

**REJA 4%**  
**BAJARILGAN**

Ta'kidlashlaricha, qurilish xarajatlari teng ulushlarda davlat oliy ta'lilmuassasasi va O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan talabalar turar joylari va OTMning to'lq o'z mablag'lari hisobidan hamda investitsiya dasturi doirasida 10 090 o'rinni 21 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Shundan 1 ta 550 o'rinni loyiha foydalanishga topshirilgan. Tender bosqichidagi loyihalari 1 ta 240 o'rinni, loyiha-smeta hujjatlari ishlаб chiqilayotgan loyihalari 11 ta 4 850 o'rinni. Bugungi kunda 30 ta 16 050 o'rinni loyiha da jadal olib borilmoqda.

Yil yakuniga ham 4 oy qoldi, talabalar yotoqxonalarini qurish rejasida deyarli bajarilmasi. **Olyi va o'rta maxsus ta'lim vazirligi taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra**, bugungi kunda 2 ta OTM – Nukus va Samarqand davlat universitetlarida yotoqxonalar qurilib, foydalanishga topshirilgan. Bu **2022-yigli reja hozircha 4 foizga bajarilganini ko'satadi**. Yotoqxonalarini qurish uchun tadbirkorlarga subsidiyalari ajratilganiga qaramay, jarayon sekin ketmoqda. Talabalar kontingenti eng katta bo'lgan **Toshkent shahrida esa bu boradigan ishlар deyarli boshlanmagan**. Faqat O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida tadbirkor 1 200 o'rinni yotoqxona qurmoqda. Rejaga kiritilgan boshqa 9 ta universitet bo'yicha esa hali mavhumlik bor.

Yildan yilga qabul kvotalari oshirilayotgani yaxshi, albatta. Biroq OTMlarning moddiy-teknik bazasi va yotoqxona infratuzilmasi inobatga olinmayapti. Keyingi yillarda yurtimizda o'nbab xususiy va xorijiy OTMlarning faoliyat boshladi, afsuski, ularning hech biriga yotoqxona infratuzilmasi bo'yicha talab qo'yilmadi. 90 foiz xususiy va xorijiy OTMlarning yotoqxonasi yo'q. Oshirilgan kvotalar bo'yicha talabalarining turar joylarini esa faqat ijara uylar qondiriyapti. Shu bois qarorlar kompleks va oqibatlari puxta o'ylab qabul qilinishi lozim.

# QANDAY YETAKCHILAR SALOHIYATLI KADRLAR REZERVIGA OLINADI?

Joriy yilning 4-avgust kuni Prezidentimiz raisligida davlat xizmatini isloq qilish va boshqaruvda natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida mamlakatimiz rahbari "Kuni kecha yarim yil yakuni bo'yicha yaxshi natija ko'satgan 65 nafar hokim yordamchisi va 40 nafar yoshlar yetakchilarini Salohiyatli kadrlar rezerviga o'zim tanlab oldim", deya aytgan edi. Xo'sh, bu ishonch kimlarga berildi?



Ilk qahramonimiz Shayxontohur tumanidagi "Sarhumdon" mahallasi yoshlar yetakchisi. Uning fikricha, mahalladagi yoshlarning bandligini ta'minlash, ularga imtiyozlar berish orqali yoshlar orasida jinoymatchilikning oldini olish, ularni egor yo'llardan qaytarish mumkin.



**Davronbek MELIQO'ZIYEV,**  
Shayxontohur tumanidagi "Sarhumdon"  
mahallasi yoshlar yetakchisi:

— Dastlabki ishimni probatsiya ro'yxtida turuvchi, jinoymatchilikka moyilliigi bor, nötinch-noqobil oila farzandlari hamda bemaqsad yurgen ishsiz yoshlar bilan yaqindan tanishib, ular bilan do'stona munosabatda bolishdan boshladim. "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida tashkil etilgan barcha musobaqalarga aynan shu toifadagi yoshlarni qamrab oldik. Hatto mahalla sardorlari ham shu yoshlardan saylandi.

Xalqaro Islom akademiyasi bilan hamkorlikda 20 nafar yoshga chet tillarni bepul o'rgatishni yo'lg'a qo'yidik. Ichki ishlar vazirligi "Jar" sport sog'iomlashtirish kompleksi rahbariyati bilan 35 nafar ijtimoiy himoyaga muhitoj yoshlarga boks, taekvondo, tennis, gimnastika to'garaklarida bepul shug'ullanishlari uchun yo'llanmalar berildi. Yana 29 nafar ijtimoiy himoyaga muhitoj yoshlarga tumanimizdagi sport maktabining suzish to'garagiga bepul qatnashish imkoniyati taqdim etildi.

S h u n i n g d e k , O'zbekiston JUDO federatsiyasi bilan hamkorlikda 10 nafar yosh bepul to'garaklarga jaib etildi. Mazkur yo'llanmalarini mahalladagi sportga qiziqishi baland hamda vaqtinchada

ishsiz, jinoymatchilikka moyilliigi bor yoshlarga taqdim etdik.

Mahallamiz yoshlari orasida iqtidorlilari ham talaygina. Masalan, 41-maktab bitiruvchisi Robiya Akromova "FOUNDERS" o'quv markazida ingliz tilidan dars bermoqda. Mahallamiz yoshlarning ingliz tilini bepul o'rganishi uchun Robiyaga mahallamiz binosidan bir xonani ajratib berdi. Robiya bu yerda mahalla yoshlariga bepul dars bermoqda. Hozir mahallamizdan tashqaridagi yoshlar ham to'lov asosida Robiyadan ta'lim olish istagini bildirmoqda. Robiya o'z mahalladoshlariga yordam berish bilan birga yaxshigina daromad ham olyapti.

Ayni paytda mahallamda ishsiz yosh yo'q. Shu paytga qadar yoshlar orasida birorta ham jinoyat sodir bo'lindi.




**Laylo MENTIO'R RAYEVA,**  
Termiz shahridagi "Bo'zor" mahallasi yoshlar yetakchisi:



— O'z vazifamga kirishgan kunimdanooq, mahallamiz yoshlarining orzu-umidlari quloq tutdim. Ular orasida 12 nafar yosh dizaynerlikka qiziqishini, o'zlarini yaratgan milliy va zamonaviy liboslarini keng jamaatchilikka namoyish qilish istagini bildirdi. Yoshlar bilan mazkur loyihami yanada kengaytirib, dastur ishlab chiqdik.

Tashabbusimiz hokimimizga ham ma'qul kelib, bizni qo'llab-quvvatlaydigan bo'ldi. Yoshlar ishlari agentligi Termiz shahar bo'limi, Termiz shahar madaniyat bo'limi, Milliy gvardiya Surxon daryo viloyati boshqarmasi, DXX Surxon daryo viloyati boshqarmasi, Termiz shahar hokimligi, Termiz shahar xalqalimi bo'limi bizga yordam berishga shay. Quvonarlisi, ushu loyiha nafaqat Termiz shahri, balki Surxon daryo viloyati bo'yicha ilk marotaba o'tkazilayotgan edi. Viloyat miyosida shov-shuvlarga sabab bolgan ko'rgazmamiz Termiz shahridagi San'at saroyi yozgi sahnasida ko'tarinku ruhda bo'lib o'tdi.

Shundan so'ng mahallamizda yosh dizaynerlarimizning safi kengaydi. Keyinchalik ular orasidan ikki nafar havaskor dizaynerlar – Gulzoda Abdunabiyeva, Aziza Xatamova Xalqaro modalar namoyishida o'zlarining dizaynerlik ishlari bilan ishtiroy etishdi.



Qahramonlarimizning har biri o'zlariga yuklatilgan asosiy vazifalar – yoshlar bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sportga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish, ishsiz yoshlarga subsidiya asosida ish qurollari ajratish, tadbirkor qilish, boringki, har sohada eng yaxshi natijalarini ko'ssata olgan yoshlar yetakchilari hisoblanadi. Ular o'zlarining tashabbusi, yangicha loyihami bilan mahalladagi muammolarini bartaraf etmoqda. Hatto galadagi qahramonimiz kabi ajrim yoqasiga kelib qolgan yosh oillarini bu yo'ldan qaytarmoqda.

**Suraj ALIYEV,**  
Ellikqal'a tumanidagi "Navoiy"  
mahallasi yoshlar yetakchisi:



— Yaqinda mahallamiz raisidan yosh oillaridan biri – Eshchanovlarining tinimsiz janjalidan xabar topib, o'sha xonadonga yo'l oldim. Janjalning asosiy sababini so'radim. Aytishlaricha, er-xotin hech qayerda ishlamas, ro'zg'orni faqat bolalar nafaqasidan qilishar ekan. Yuzaga kelgan yetishmovchilik esa doimiy janjalga

sabab bo'layotgan ekan. Yorqinoy Yaqubova bilan suhbatlashib, qolidan qanday ish kelishini so'raganimda shirinliklar pishirishga uquvi borligini aytdi. Mikroto'lqinli pechi yo'qligini, agar bo'lganida shirinliklar tayyorlab, savdoga chiqarish istagi borligini bildirdi. Uning istagini amalg'a oshirish uchun "Yoshlar daftari"ga



ro'yxatga olib, barcha zarur jihozlarni olib berdi. Mahalla ahlining homiyligi asosida kerakli mahsulotlarni ham ajratdik. Yorqinoy o'z hovlisidan bir xonani shirinliklar sexiga aylantirdi. Hozir tumanimiz dökonlariga shirinliklari dan yetkazib, doradom olmoqda. Oilasi ham xotirjam. Endi xonadan egasi Gulomming doimiy ish orniga ega bo'lishi uchun harakat qilyapmiz.

Mahallamizda sog'ligida muammozi bor yoshlarga ham alohida etibor berib kelyapman. 2001-yilda tug'ilgan Allashukur Alimboev sog'ligi sabab ishlash imkon cheklangan yoshlardan. Olsasida undan boshqa boquvchi yo'q. Onasining ham sog'ligida muammozi borligi bois hech qayerda ishlamaydi. Allashukur 3 yildan buyon disk churasi si kasalligidan azyiat chekapti, chet davlatga ishlashga ketgan otasidan esa 8 yildirki, hech qanday darak yo'q. Onasiga nima yordam bersak, ko'nglingiz xotirjam boladi, deb savol berganimda faqat davolanish uchun moddiy yordam zarurligini, o'g'li sog'ligini tiklab olsa, qo'lidan juda ko'p ish kelishini aytdi. Shu kunning o'zida Allashukurni "Yoshlar daftari" ga ro'yxatga oldim va salomatligini tiklashi uchun zarur mablag' ajratildi. Hozir Allashukurning ahvoli yaxshi, ishga chiqib ollasini boqmoqda.

Suraj mahallasidagi yoshlarning san'atga qiziqishlariga ham alohida etibor qaratmoqda. Shu boisdan mahalla yoshlari "Yoshlar ovozi" ko'rlik-tanlovida faxrli o'rinnarini qo'lg'a kiritgan.

Bu yetakchilar har sohada tashabbus ko'satmoqda. Har holda ularning 10 mingga yaqin yetakchilar orasidan saralab olin-gani bejiz emas. Keyingi sonlarimizda ham shunday ilg'or yoshlar yetakchilarining faoliyati bilan tanishitirishda davom etamiz.

**Iqbol PARDAYEVA,**  
"Yoshlar ovozi" muxbirini

# ORZUM USHALDI



**Otabek QOBILOV,**

Respublika yosh ijodkorlar seminarining badiiy publitsistika yo'naliishi ishtirokchisi, Chust turmanidagi "Tinchlik" mahallasi yoshlar yetakchisi

**Y**oddingizda bo'lsa, ijodga juda qiziqadigan, mahalla yoshlarini ham o'z ortidan yetaklayotgan mahalla yoshlar yetakchisi haqida maqola e'lon qilgan edik. Chust turmanidagi "Tinchlik" mahallasi yoshlariga yetakchilik qilayotgan Otaleb Qobilovning eng katta orzularidan biri – Respublika yosh ijodkorlar seminarida qatrashish edi. Buni qarangki, yaqinda uning orusi ro'yobga chiqdi. Mazkur seminar taassurotleri haqida uning o'zidan eshtsak.

– 2022-yil 17-avgust. Poytaxtimizdagidagi Adiblar xiyo-boni respublika yosh ijodkorlarining an'anaviy seminari ishtirokchilarini qarshi oldi. Unda o'zbek adabiyotining zabardast ijodkorları, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va viloyat bo'limlарining vakillari, hududlar-saralab ollingan istedodlar qatrashdi.

Dastlab xiyobondagi Alisher Navoiy haykali poyiga gulchumbar qo'yidik. Shundan so'ng Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinnbosari Botirjon Ergashev 85 nafar ishtirokchining ijod namunalari o'rın oлган "Eng gullagan yoshlik chog'ima" nomli bayoz nashrdan chiqqani, kitob barchaga tuhfa etilishini e'lon qildi. Taqdirmotda O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov, O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir, O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultan, Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasi raisi Kengesboy Karimov, Yozuvchilar uyushmasining Sirdaryo viloyati bo'limi rahbari Hayotxon Ortiboyeva so'zga chiqib, yangi to'plam yoshlar uchun katta sovg'a va adabiyot dunyosida yurak dardi va so'z sheri eng katta kuch ekanini ta'kidladi. Adabiyot olamiga o'z so'zi, iqtidor bilan kirib kelayotgan yoshlarga oq yo'l tiladi.

Shundan so'ng O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Do'mron ijod uyida respublika yosh ijodkorlari an'anaviy seminarining ochilish marosimi boshlandi. Tadborda uyushma a'zolari Mahmud Toir, Ahmadjon Meliboyev, Suvon Meli, Salim Ashur, Kavsar Turdiyeva, Sirojiddin Rauf, Nurboy Jabborov, Xosiyat Rustamova, Farog'at Xudoqulova va boshqa ijodkorlar mahorat darslari o'tdi.



Respublika yosh ijodkorlarining an'anaviy seminarining uchinchisi kuni Parkent ijod uyida o'z ishini davom ettirdi. Bu yerda 2021-yilda o'tkazilgan Zomin seminarida "Birinchi kitobim" loyihasiga tavsija etilgan 25 nafar yoshning ilk kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi. Shundan so'ng ishtirokchilarga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Toshkent viloyatining pul mukofotlari, statuetka, noutbuk, kitoblar jamlanmasi va boshqa esdalik sovg'alari topshirildi. Seminar o'z ishini yakunladi.

Uch kunlik taassurotlarimning, quvonchimning cheki yo'q. Kechagina Ibrohim G'afurov, Mahmud Toir, Abdusaid Ko'chimov, Ahmadjon Meliboyev, Salim Ashur, Mamatqul Hazratqulov kabi ustoz ijodkorlar bilan ko'rishish, ular bilan suhabatda bo'lish orzu edi. Bugun shu ezgu istaklarim ro'yobga chiqdi. Ustozlar sabagi'i, mehrga yo'g'rilgan mushoilar, yangi-yangi do'stlar, go'zal manzara hamda ijod bog'i bag'ridagi unutilmas kunlar hech qachon yodimdan chiqmaydi.

Besh tashabbus olimpiadasi

## ARIZALAR 1 MILLIONDAN OSHDI

"Besh tashabbus olimpiadasi"ning 2-mavsumi doirasida mahalla yoshlari madaniyat, san'at, sport, kitobxonlik, axborot texnologiyalari yo'naliishlari bo'yicha 10 dan ortiq tanlov va musobaqalarda ishtirok etishi mumkin. Bu haqda olimpiadaning 2-mavsumi doirasida o'tkazilgan matbuot anjumanida aytib o'tildi. Olimpiadaga yoshlarning taklif

va tashabbuslari asosida milliy kurasch bo'yicha musobaqa, "Yoshlar raqs festivali", "Milliy va zamonaviy cholg'u ijrochiligi" respublika tanlovlari ham kiritildi.

Musobaqalarda ishtirok etish, shartlari yuzasidan yoshlarga to'liqroq ma'lumot berish maqsadida Yoshlar ishlari agentligining YouTube platformasiga video-qo'llanmalar joylashtirilib, keng

yorilmoqda. Bugungi kunga qadar musobaqalarda ishtirok etish uchun 1 million nafardan ziyorat yosh ro'yxatdan o'tdi.

"Besh tashabbus olimpiadasi"ning 2-mavsumiga arizalar 9-sentabrga qadar qabul qilinadi.

**Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,**  
"Yoshlar ovozi" muxbirini



# XORIJ VA BIZ:

## YOSHLAR O'RTASIDAGI FARQ KATTA...(MI?)

Har qanday zamon va makonda taraqqiyot yoshlarning bilim darajasi, salohiyati va dunyoqarashiga qarab belgilanadi. Bugun yoshlar dunyoqarashi tobora o'zgarib, rivojlanib borayotgani hech kimga sir emas.

Ammo ijtimoiy muhit, yashash joyi va shu kabi ayrim jihatlar yoshlar o'rtaida katta farq borligini ko'rsatadi.

### MUSTAQILLIK

Yevropa davlatlarida ota-onalar farzandlarini mustaqil hayotga ancha ertaroq tayyorlay boshlaydi va "uchirma" qiladi. Buzda bunga qisman o'xshash bosqich o'g'il-qizlar maktabni tamomlash davriga to'g'ri keladi. Bu vaqtida yoshlar oldida ta'limenti oliv o'quv yurtida davom ettirish yoki hunar o'rganish tanlovi bo'ladi. Bu jarayonga katta hayotga qadam sifatida qaratadi.

Chet elda-chi? 18 yoshni qarshilagan farzandda pul topish va uni to'g'ri sarflay olish ko'nikmasi shakllangan bo'ladi. Bu vaqtida ular oliv ta'lim olish, qaysidir oliv ta'liming "qizil" diplomini qo'lg'a kiritishni emas, ko'proq o'z ustida ishslash va sayohat qilishi rejasini belgilab oladi. Balki, ovqatlanish joylarida ofitsiantlik qilishiga to'g'ri kejar yoki xuddi kinolardagidek gazeta tarqatishar - o'z mehnati orqali maqsadlariga yetishishi mumkinligi go'daklik paytidanoq ongiga singdirib kelingan bo'ladi. Yoshlar mustaqil hayotga qancha erta qadam tashlasa, maqsadiga o'z kuchi bilan erishishi mumkinligini qancha avvalroq anglab yetsa, shuncha yaxshi, nazarimizda!


### KITOBXONLIK

Amerika maktablarida qaysi fan o'qituvchisi bo'lishidan qat'i nazar - u xoh matematika, xoh jismoni tarbiya bo'lisin, o'qituvchi o'z o'quvchilarini doimiy mutolaga chorlab turishi, qiziqtira olishi an'anaga aylangan.

Ozbekistonda ham targ'ibot ishlari, kitobxonlikni rivojlantirishga e'tibor beqiyos darajada. Yevropa mamalakatlarida bola hali o'qishni o'rganmasidanoq bir nechta kitoblar haqidagi tasavvurga ega bo'ladi, ajoddolari qoldirgan shoh asarlar xazinasini bilan farzandini tanishtirish, o'qib berish va o'qishga undash ota-onalar uchun muqaddas vazifa. O'zimizda esa multolaa borasida gap ketar ekan, "Kitob o'qigan 'Spark' minadil" degan qarash shakllanib ulgurgan. Bunda "Yosh kitobxon", "Yosh kitobxon oila" kabi tanlovlardan kutilganidan yaxshiroq natija ko'rsatdi. Ammo... kitob o'qish inson madniviysi va bilim doirasini boyitib, "Spark" dan ham yaxshiroq sovg'alar taqdim etishi mumkinligini o'mak ko'rsatish usuli orqali targ'ib qilsak, nur ustiga nur bo'lar edi!

“

**MAKTABLAR,  
KOLEJ-LITSEYLARDA  
O'QUVCHIGA  
TELEFON ISHLATISH  
QAT'IY TAQIQLANIB,  
TURLI QOIDALAR  
JORIY ETILADI.  
AMMO UNDAN  
TO'G'RI VA O'RINLI  
FOYDALANISH  
HAQIDA  
TUSHUNCHА  
BERILMAYDI.**



Birga o'qiyimiz!

Loyha muallifi Ziyoda RAHIMBOYEVA.

# “JADIDLAR” BILIMDONI



### KIYINISH

Brend darajasidagi kiyim-kechaklar, qimmat telefon, turli qo'shimcha texnikalar ham shular jumlasidan. Amerikaning aksariyat maktablarida o'quvchilardan maktab formasida bo'lish talab etilaydi. Butun e'tibor ularning uzluksiz va sifatlari ta'lim olishiga qaratiladi.

Bolalikdanoq kamtar kiyinish, boshqalardan qimmatbaho kiyimi emas, ko'p tilni bilishi, keng dunyoqarashi bilan ajralib turish kerakligi uqtiriladi. Va bu juda yaxshi natija beradi. Asosan, 15-25 yoshdagi o'spirin hamda o'smirlar qimmatbaho buyumlarga faqat to'liq imkoniyatga ega bo'lgandan keyin gina qiziqish kerak deb hisoblaydi.

O'zbekiston sharoitida esa maktab o'quvchilari o'rtaida 5-7-sinflik vaqtidanoq telefon va ijtimoiy tarmoqlarga kuchli qiziqish paydo bo'la boshlaydi. Kamdan-kam hollarda bu qiziqish ularning ta'lim olishi uchun ijobjiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nega deysizmi, chunki maktablar, ayrim hollarda kollej-litseylarda o'quvchiga telefon ishlatalish qat'iy taqjilani, turli qoidalar joriy etiladi. Ammo undan to'g'ri va o'rinni foydalanan haqida tushuncha berilmaydi. Bundan kelib chiqqadigan tushunmovchiliklar qanday oqibatlarga olib borishi mumkinligi ko'pchilik-ka yaxshi ma'lum.

Yuqoridaqgi bir nechta farqli jihatlarni sanaganimizdan ham ko'rinish turibdiki, ko'pchilik oshiqadigan va "Orzular shahri" deb hisoblaydigan o'sha Amerikada ham xuddi bizga o'xshash yoshlар yashaydi. Ularning kelajakda yuqori natijalarni ko'rsatadigan sportchi, dunyo tan olgan milliarder yoki taniqli yozuvchi bo'lib yetishishida aynan Amerikada tug'ilganligi emas, o'z oldiga qo'yan maqsadlari muhim rol o'yinaydi.



**K**itobxon yoshlарimizning sevilli loyihasi - "Birga o'qiyim"ning 6-soni g'olibi **Saburova Komilaxon Erkinboy qizi**. Ayni imtiyon pallasida abiturientlik tashvishlaridan ortib, kitobxonlikka ham vaqt ajratna olgan Komilaxonni yutuq bilan muborakbold etamiz.

Shu bilan birga, faol ishtirokchilar - **Husni-dabonu Hazratqulova**, **Muxisa Egamberdiyeva**, **Zarnigor Kalil qizi**, **Husan Majidov** va **Alijon Bekmurodovga** tashakkur aytamiz. Qisqa vaqt ichida "Jadidlar" to'plamini o'qishga va chuqur tahlii qilishga ulgurgan ilmga chanqoq yoshlарimizga muvaffaqiyat tilaymiz! G'olibimizni esa **tahririyatning maxsus diplom va qimmatbaho sovg'alarini kutib turibdi**!

"Mushohada yuritmay turib qancha ko'p o'qisangiz, shuncha ko'p bilayotganga o'xshayverasiz, agar o'qiyotganda qanchalik ko'p mushohada yuritsangiz, shu qadar oz narsa bilishningini aniqroq his etasiz". Fransuz yozuvchisi Volter qalamiga mansub bu bebabohi fikrlar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bar-chaga mushohada yuritish baxti nasib etsin!

# OLTIN DAVR OG'RIQLARI

/HADEMAY YANA O'N MINGLAB TALABALAR SHU SARGUZASHTLARNI BOSHDAN KECHIRADI/



## SUYUNCHI! MEN TALABA BO'LDIM!

O'zgacha quvonch! Bu voqeani qo'chqor so'yib, to'ydekl nishonlashadi! Bunday baxt hammaga ham nasib etmaydi.

Sentabr. Bolakay abituriyentlik ortda qolgan, endi shaharga borishi, qishloqdag'i hayot va odamlarning gap-so'zidan qutulgani, falonchi o'qishga kiribdi, degan maqtovlar, orzulari ushalayotgani, universitetda faqat beshga o'qishini oy'lab sarkush...

Toshkentda bironta tanish-bilishi yo'q. Ota-onasi uni yolg'iz Xudoga ishonib, shaharga kuzatadi. Oldindida olis yo'l. Aslida "Men o'qishga kirdim!" deb nomlangan quvonch uzoqqa bormaydi. Katta orzulariga birinchi qadamni qo'ygan bolakay turli tashvishlarga ro'baru ketadi.

## SALOM, TOSHKENT YOXUD KVARTIRA MUAMMOSI

*Endi meni hayotim o'tadi ko'chada,  
Zo'rashula eshitaman erta-kechada...*

Bolakay poyezddan tushib bilan izlaydigan birinchi narsa bu, albatta, turar joy. E'l-onlar-ni qidir, bor, ko'r va "Talabaga kvar-tira yo'q" degan dag'dag'alar... Shahar markazida "kvartiralar" qimmat, nai洛j chekkaroqdan 2 xonali uyning bir xonasida yashash sharti bilan 500 000 so'mga kelishiladi. Qarasaki, bu yerda unga o'xshaganlar ko'p. Bir xonada 4-5 kishi yashaydi. Ha mayli, har holda ko'chada qolgandan yaxshi. Ming shukr.

Ammo endi kvartirada uy egasining ming'ir-ming'irlari boshlanadi. Ko'p joylarda uyning bir xonasida oila, boshqa xonasida 3-4 talaba yashaydi. Kemaga tushganning joni bir deganlaridek, nima muammo bo'sa, siz ham teng turib berasiz. Har xil odam bor. Qozonga yaqin yur-sang, qorasini yuqadi. Agar o'sha talaba shunday qabib niyatli insonlarga o'ralashib qolsa-chi? Kirish bor, chiqish yo'q yo'llar bor, hatto niyoyasi o'lim bilan tugaydigan!

## YAXSHIYAM "PROYEZDNOY" BOR!

*Daryo-toshqin, suvlar-to'lqin,  
o'tolmayman, yor-yor,*

*Otim oriq, manzilimga yetolmayman, yor-yor..*

Endi o'qishga qatnash muammosi. Kvartira shaharning bir chekkasida, universitet shahar

markazida. Avtobusdan metrogacha 1 saatlik yo'l, metrodan manzilgacha yana shuncha vaqt. Nafaqat avtobus, balki metroda ham odam ko'pligidan oyoq bosishga joy yo'q. Turtinga-surtina o'zingni avtobusga urasan. Bunday vaziyatga qizlar qanday chidasharkan?

Bir necha marta avtobus eshibi qisib qoldi. Jon shirin, rosa ogriydi. Shunday paytda jahlor konduktor yoki haydovchi sizning asablarizingizni qo'zg'atish uchun yetarli. Xullas, hisoblasam, bir kun-da 4800 so'm ketadi - "proyezdnoy" o'lgan ma'qul.

To'g'ri, bunday muammo hammadayammas, biroq ko'pchilikda shunaqa. Yo'l uzoqligidan darsga kech qolasiz. "NB"lar yig'ilma boshlaydi. Yo'l-dagi asabbzurliklar, albatta, talabaning fanni o'zlashtirishiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.



## OCHLIK DAVRI

*Haqiqat egiladi, bukiladi, sinmaydi.  
Talaba och qolsayam, o'maydi!*

Yana bir "global" muammo - yeysiyl-ichish. Ko'chada "Fast food" bilan qorin aldash kamida 20 000-25 000 so'm. Bir kunda 75 000 so'm. Voy, bir oyda 2 250 000 so'm ketyapti-ku? Yo'q, yaxshisi bir kunda bir mahal ovqatlana qolsak-chi? 750 000 so'm.

To'g'ri, bu pulga bozorlik qilib, qora qozonni bir oy qaynatish mumkin. Biroq bu ko'proq kvartiradagi vaziyatga, o'sha 4-5 kishining qaroriga bog'liq. Gohida pul tejayman deb bozortik qilasiz, kvartirangizdilar sabab bir oylik oziq-ovqatingiz bir haftaga yetmaydi. Undan keyingi pushaymon qorin to'yg'azmaydi.



Behruzbek RAJABOV,  
O'zJOKU talabasi

Oziq-ovqatning o'ziga ancha pul ketib qoladi, bir yilga hisoblaganda bu oddiy kontrakt nar-xidan baland.

Talaba Toshkentga o'qish uchun keladi, yeb-ichish uchun emas! Biroq o'qish uchun, avtobusga ulgurmay ortidan yugurish uchun, metroda tik oyoqda suyanmasdan "Iltimos suyanmangiz!" yozuvini o'qib ketishi uchun energiya kerak! Uning uchun esa ye-yish kerak. Kiyinish-chi? Kontrakt-chi? Ota-onha o'kizni totib kontraktini zo'rg'a to'lagan. Ularni yana azoblab, telefon qilib "Dada, salom, pul tamom!" deyish... Kechirasiz, bosh-qalarni bilmadim-u, men 1 so'm ham olo-mayman.

## ISHLASH YOKI O'QISH?

*Bu ho'kizmas, diplom!  
Ho'kiz Toshkentda o'qiydi!*

Ota-onha o'g'li telefon qilishidan qo'rqb qolgan, endi nimani totishini bilmaydi. Qo'ylar ketdi, ho'kiz ketdi, tovuqlaram qolmadni. Asta-sekin hayotning bunday qiyinchiliklari ko'nigkan talaba uchun o'qish keyingi o'runga tushib qoladi. O'qish uchun deyarli vaqt bo'lmaydi. Epiab diplomni olsa bo'ldi. Ish izlasak-chi?

- 2-3 yillik ish tajribasi kerak!
- O'qishni bitirmagansiz, diplom kerak!
- 3-kurs bo'lganiningizda keling!

- Talabaga ish yo'q!  
- Ish yo'q!  
- Yo'q..

Xullas, ish yo'q. Ha mayli, kunlik ishlar bor-ku! Bazaar bor! Biroq hozir o'qish, o'rganish kerak bo'lgan davrda talaba arava surib, birovning xizmatini qilib yursa, kelajak qanday bo'ladi?

## UNIVERSAL BAKALAVR DIPLOMI

*Diplom oddiy qog'oz emas,  
Diplom - karton qog'oz!*

Ishga, pul topishga berilib ketgan tala-baning universitetdag'i ishlari "5" bo'lmaydi. U doim gap eshitadi, kechga qolib keladi, darsda ugraydi, vazifalarini tayyorlamay keladi, uyalib qoladi. "5" ga o'qiyman, deb kelgan talaba ustozlarning "3" yo'q'iy berishiga zor ahvolda qoladi. Universitetni tugatganda esa ofitsiantlik, ta'mirlash, tuzatish, arava surish, yuk ortish, g'isht terish va boshqa men esimdan chiqqargan sohalar bo'yicha universal bakalavr diplomiga ega bo'ladi. Kelajakda "tankasi" bo'lmasa, sohasi bo'yicha ishga kirolmaydi, chunki u o'qish o'rniiga pul topish bilan band bo'lgan. Axir saviyasiz va bilimsiz kadr kimga kerak? Xullas, eng oxirida zo'r diplom yaratiladi, zo'r kadr emas.

# “BIZNING YOSH IJODKORLAR”

Loyha muallifi: Shahribonu RAHMATOVA.



“Singlim portreti”



“Xivalik qız”

**E**tibor bergenmisiz, yosh ijodkorlarning ismi yonida “umidi” so’zi qo’llaniladi. Sababi yoshlar har bir sohaning ertasi, buniyodkori, ya’ni umidi sanaladi. Shunday ijodkorlarimizdan biri Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti dastgohli rangtasvir yo’nalishi talabasi **Farrux Mamadiyov**.

U o’zbek milliy tasviriy san’atining rangtasvir yo’nalishida samarali ijod qilib kelmoqda. **19 yoshida “Taassurot” nomli ilk shaxsiy ko’rgazmasini tashkil qilgan**. Tasviriy san’at yo’nalishida bir qator respublika va xalqaro tanlov hamda festivallarda ishtirok etib, g’olib va sovrendorlar qatoridan o’rin olgan.



Natyurmort



“Ijodiy iahzo” kompozitsiyasi



“Intiqom” kompozitsiyasi

Farrux chizgan suratlarni tomosha qilar ekansiz, ranglar, detollar uyg’unligi o’ziga rom qilib qo'yadi, soatlab kuzatsangiz ham yonidan ketgingiz kelmaydi. Rassom o’zining eng sevimli asarlaridan biri “Xivalik qız” surati haqida shunday deydi:

— Xorazmshohlar davlati tarixi bu asarni yaratishda ilhom bergan. Xiva shahrining butun go’zalligini bir asarda jamlashga harakat qildim.

Suradta subhidam vaqt shahar chiroyidan sarmast turgan Xorazm qizi tasvirlangan. Bu asar ijodkorga omad va yutuqlar olib kelgan. **Shanxay** hamkorlik tashkiloti tomonidan o’tkazilgan “Jahon merosi o’zbekistonli yosh ijodkorlar nighohida” mavzusidagi ijodiy asarlar tanlovida Gran-pri sohibi bo’lgan. Hozir “Xivalik qız” jahon ko’rgazmalari fondidan o’rin olgan.

## YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:

**Hamza ABDULLAYEV**

**Muassis:**  
O’zbekiston yoshlari ittifoqi  
Markaziy Kengashi

**Bosh hamkor:**  
O’zbekiston Respublikasi  
Yoshlari ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:  
**Sardor SA'DULLAYEV**

Musahhihlari:  
**Rashid XO’JAMOV,**  
**Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va omrnayli kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 1-fekabrdra № 0242 raqamli bilan qayta ro’yxatdan o’tqan. Gazeta materialari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko’chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosma-xonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma tabaq. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. Indekstor: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxa. Buyurtma G-855, Adadi – 10527. Bosishga topshirish vaqtı – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o’tish  
uchun QR-kodini  
telefoningiz orqali  
skanner qiling.



1 2 3 4 5 6